O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.Fil.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZARIPBOYEVA NAFOSAT MARATOVNA

O‘ZBEK MEDIA DISKURSIDA GENDER STEREOTIPLARINI NLP TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ANIQLASH VA TASNIFLASH

10.00.11 – Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 811.512.133'32'42-055.1/.3

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Zaripboyeva Nafosat Maratovna
O‘zbek media diskursida gender stereotiplarini NLP texnologiyalari asosida aniqlash va tasniflash……..……5

Зарипбоева Нафосат Маратовна
Выявление и классификация гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе на основе технологий NLP.....……..25

Zaripboyeva Nafosat Maratovna
Identification and classification of gender stereotypes in Uzbek media discourse on the basis of NLP technologies.....……

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….. …

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.Fil.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZARIPBOYEVA NAFOSAT MARATOVNA

O‘ZBEK MEDIA DISKURSIDA GENDER STEREOTIPLARINI NLP TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ANIQLASH VA TASNIFLASH

10.00.11 – Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Fil7327 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.nuu.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sayfullayeva Ra’no Raufovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xayrullayev Xurshid Zayniyevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Ataboyev Nozimjon Bobojon o‘g‘li filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.01.12 raqamli Ilmiy kengashning **“1” dekabr 2026-yil** soat **14.00** dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24 e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____kuni tarqatildi.

(2026-yil «____» _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.B. Abdushukurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.B.Xujamqulova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

M.M.Kurbanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida mediadiskurs murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etilib, unda gender stereotiplarining shakllanishi, ifodalanishi va tarqalishi til, madaniyat hamda ijtimoiy munosabatlar o‘zaro aloqadorligida tadqiq etilmoqda. Mediadiskursdagi gender stereotiplarini o‘rganish dastlab sotsiolingvistik va pragmatik yondashuvlar asosida olib borilib, erkaklar va ayollarga xos ijtimoiy rollar, ular haqidagi tasavvurlarning til birliklari orqali ifodalanishi hamda kommunikativ jarayonda namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va turli media platformalarning ommalashuvi natijasida mediadiskursning kommunikativ imkoniyatlari kengayib, gender stereotiplarining shakllanishi, mustahkamlanishi va o‘zgarishini lingvistik jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida mediadiskurs, xususan, media statuslar va postlarda gender stereotiplarining lisoniy ifodalanishi, shakllanishi hamda tarqalish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda kognitiv-diskursiv, sotsiopragmatik va lingvomadaniy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etib, gender stereotiplarining semantik-pragmatik xususiyatlari, kommunikativ vazifalari hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, media statuslar va postlarda gender stereotiplarini yuzaga chiqaruvchi lisoniy vositalarni tizimlashtirish, ularning kontekstual ma’nosi va pragmatik ta’sirini aniqlash, shuningdek, genderga oid ijtimoiy tasavvurlarning mediadiskursda shakllanishi va qayta ishlab chiqarilish mexanizmlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda mediadiskursning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish, media matnlarning pragmatik, lingvomadaniy va kommunikativ jihatlarini tadqiq etish hamda raqamli kommunikatsiya jarayonlarida til birliklarining qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar rivojlanmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni hamda mavqeyini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir[1]. Mazkur fikr media matnlarda milliy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tasavvurlar va genderga oid qarashlarning lisoniy ifodalanishini o‘rganish muhimligini asoslaydi. Ayniqsa, media statuslar va postlarda gender stereotiplarini ifodalovchi til birliklarining semantik-pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ vazifalari hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini ochib berish dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, o‘zbek mediadiskursida gender stereotiplarining sotsiopragmatik xususiyatlarini tizimli tadqiq etish, ularning lisoniy ifoda vositalari va kontekstual namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti // https://president.uz/oz/lists/view/4057

siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta’lim va fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi kabi normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida media matn va media diskurs muammolari bilan keng ko‘lamda shug‘ullanish Van Deyk, Norman Fairclough, R.Fauler hamda M.Montgomery[2] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq. Gender hamda gender stereotiplari masalasining lisoniy xususiyatlari esa, R.Lakoff, G.Hofstede, A.H.Eagly, D.Tannen, V.Vood, J.Holmes, Y.Kartushina, V.Nikolskaya L.A.Rudman, P.Eckert, S.McConnell-Ginet hamda N.Ellemers[3] kabi dunyo olimlari tomonidan turli lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Rus tilshunosligida matn va diskurs masalasi, diskursiv tahlil taraqqiyoti, shuningdek, media matn hamda media diskurs nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan tadqiqotchilar sifatida S.I.Bernshteyn, G.Y.Solganik, S.I.Treskova, B.V.Krivenko, I.P.Lisakova[4], E.Y.Bogdanova,

---

[2] Van Dijk T. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – 200 p.; Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.; Fairclough N. Media Discourse. – London: Arnold, 1995. – 214 p.; Montgomery M. The Discourse of Broadcast News: A Linguistic Approach. – New York: Routledge, 2007. – 264 p.

[3] Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 85 p.; Eagly A.H. Sex Differences in Social Behavior: A Social-Role Interpretation. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1987. – 190 p.; Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 330 p.; Hofstede G. Masculinity and Femininity: The Taboo Dimension of National Cultures. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 1998. – 238 p.; Eagly A.H., Wood W. The Origins of Sex Differences in Human Behavior: Evolved Dispositions Versus Social Roles // American Psychologist, 1999. Vol. 54. – № 6. – P. 408-423; Holmes J., Meyerhoff M. (Eds.). The Handbook of Language and Gender. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2003. – 776 p.; Картушина Е.А. Гендерные аспекты фразеологии в массовой коммуникации. Дисс. … канд. филол. наук. – Ижевск, 2003. – 175 с.; Никольская В.А. Гендерные асимметрии и стереотипы в английской фразеологии. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Н.Новгород, 2005. – 23 с.; Rudman L.A., Glick P. The Social Psychology of Gender: How Power and Intimacy Shape Gender Relations. – New York: Guilford Press, 2008. – 386 p.; Ellemers N. Gender Stereotypes // Annual Review of Psychology, 2018. Vol. 69. – P. 275-298.

[4] Бернштейн С.И. Язык радио. – Москва: Наука, 1977. – 96 с.; Солганик Г.Я. Лексика газеты: функциональный аспект. – Москва: МГУ, 1981. – 160 с.; Трескова С.И. Социолингвистические проблемы массовой коммуникации. – Москва: Наука, 1989. – 160 с.; Кривенко Б.В. Язык массовой коммуникации: лексико-семиотический аспект. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1993. – 136 с.; Лисакова И.П. Язык газеты и типология прессы: Социолингвистическое исследование. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. – 320 с.

V.Y.Filippova, E.A.Kazimova, I.V.Andreyeva, E.V.Solovyanova, V.E.Chernyavskaya[5]larning izlanishlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov, S.Mo‘minov, M.Hakimov, M.Gaziyeva, Sh.Iskandarova, D.Abduazizova, L.Raupova[6], shuningdek, Sh.Bobojonova, Sh.Gulyamova, G.Niyazova, S.Nurmonova, G.Odilova, A.Pardayev, Q.Rasulov, N.Abdurahmonova, Z.Taxirov, G.Ergasheva, I.Tuhtasinov, Z.Djurayeva, D.Rustamov, A.Ruziyev, N.Xursanov, M.Saidxonov, A.Abdusaidov, G.Bakiyeva, D.Teshabayeva, S.Shomaqsudova va M.Israil[7] hamda boshqa olimlarning ishlarida tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq qimmatli materiallar uchraydi.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ommaviy axborot vositalari tili gender stereotiplar doirasida jahon tilshunosligida ham ma’lum darajada o‘rganilgan.

---

[5] Богданова Е.Ю. Лексические приметы дискурса власти и дискурса личности в произведениях С.Довлатова. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 18 с.; Филиппова Ю.А. «Дискурсы сознания» и «дискурсы о сознании» в «новой волне» литературы постмодернизма. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2016. – 142 с.; Казимова Э.А. Персональность в дискурсе побуждения. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 27 с.; Андреева И.В. Опровержение в институциональном дискурсе. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 200 с.; Соловянова Е.В. Агональность в академическом дискурсе. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2020. – 24 с.; Чернявская В.Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс: Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: С.Петерб. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С. 14.

[6] Маҳмудов Н. Presuppozitsiya va gap. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti, 1986. – 29 b.; Mahmudov N. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 175 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 29 б.; Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. Darslik. – Farg‘ona: Klassik, 2020. – 420 b.; Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 28 б.; Абдуазизова Д.А. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английского, русского, узбекского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. – С. 19; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 49 б.

[7] Бобожонова Ш. Ўзбек ва инглиз тилларидаги таълимий дискурснинг когнитив-прагматик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Андижон, 2022. – 121 б.; Гулямова Ш. Б. Монологик дискурсдаги қўшма гапларнинг социопрагматик талқини. – Тошкент, 2022. – 141 б.; Ниязова Г.Ғ. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 140 б.; Нурмонова С.Д. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. – Андижон, 2022. – 66 б.; Одилова Г.К. Глюттоник дискурс асослари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2020. – 296 б.; Pardayev A.B. Diskurs haqida ayrim mulohazalar // International journal of progressive science and technologies, 2021. – B. 181-189; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.– 22 б.; Abdurakhmonova N., Aripov M. Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective // “TurkLang 2018”.– Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 390 p.; Taxirov Z. Badiiy matn tahriri: leksik-semantik tahlil. Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 64 b.; Ergasheva G.I. Applied linguistics: Terminology and Translation through gender discourse lens. – Tashkent: Navruz, 2018. – 154 p.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Тошкент: УзГУМЯ, 2011. – 28 с.; Djurayeva Z.R. Turli tizimli tillar paremiologik fondida gender konseptosferasini ifodalash (rus va o‘zbek tillari misolida). Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 72 b.; Rustamov D. Linguacultural aspects of communication // International journal of progressive science and technologies. – M., 2021; Ruziyev A.Y. Xususiy diskurslarda gender stereotiplarni farqlovchi nutq birliklari (“Mendirman Jaloliddin” va “Ertug‘rul” kinossenariylari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Andijon, 2023. – 57 b.; Хурсанов Н.И. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати (ўзбек ва инглиз тилларидаги асарлар мисолида). Филол. фан. д-ри … дисс. – Андижон, 2022. – Б. 39; Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 161 б.; Abdusaidov A. Gazeta sarlavhasi (Gazeta sarlavhalarining struktur-grammatik va leksik-stilistik xususiyatlari). – Samarqand: SamDU, 1995. – 120 b.; Bakiyeva G., Teshabayeva D. Mediamakonda matn. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2019. – 208 b.; Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O‘zbekiston Respublikasi OAV misolida). Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 48 b.; Shomaqsudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 182 b.

Masalan, olim M.Talbot[8] media tilini sotsiopragmatik jihatdan o‘rganib, uning gender rolini mustahkamlash masalasini tahlil qilgan. Talbotning fikricha, reklama va mass-media ayollar va erkaklarni stereotipik obrazlarda tasvirlash orqali iste’molchilarning ijtimoiy kutilmalarini shakllantiradi. J.Sunderland[9] esa, bolalar adabiyoti va mediasi asosida gender stereotiplarning yosh avlodga ta’sirini tahlilga tortgan. Olimning tadqiqoti stereotiplarning til orqali ijtimoiylashuvi jarayonidagi rolini ochib berganligi bilan ahamiyatli.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasining mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Korpus lingvistikasi. Kompyuter leksikografiyasi. Ontologiya va semantik texnologiyalar” (2024-2028-y.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek media diskursida gender stereotiplarining lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularni avtomatik aniqlash va tasniflashning lingvistik-pragmatik mezonlarini ishlab chiqish hamda NLP texnologiyalari asosida amaliy qo‘llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek media diskursida gender stereotiplarining lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlarini nazariy jihatdan o‘rganish hamda ularni avtomatik aniqlashda qo‘llaniladigan NLP yondashuvlarini tahlil qilish;

ijtimoiy tarmoqlardagi status va postlarda gender stereotiplarini ifodalovchi leksik-semantik, pragmatik va kontekstual belgilarni aniqlash, ularni avtomatik tahlil qilishning lingvistik mezonlarini belgilash;

gender stereotiplarining nutq aktlari, baholovchi birliklar, milliy-madaniy qadriyatlar hamda verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanish xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tasniflash mezonlarini ishlab chiqish;

o‘zbek media diskursida an’anaviy va zamonaviy gender stereotiplarining ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, ularni NLP texnologiyalari asosida avtomatik aniqlash va tasniflash modelini amaliy qo‘llash imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyektini ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan status hamda postlar ko‘rinishidagi media matnlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek media diskursidagi gender stereotiplarining lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari, ularni ifodalovchi til birliklari hamda NLP texnologiyalari asosida avtomatik aniqlash va tasniflashning lingvistik-pragmatik mezonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda zidlash, tasniflash, diskursiv, kontekstual, struktural hamda qiyoslash va chog‘ishtirish, statistik tahlil metodlari, shuningdek, koreferensiyani avtomatik aniqlashning qoidaga asoslangan, mashinali o‘qitish, neyron tarmoqli va gibrid usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

[8] Talbot M. Language and Gender in the Media. – London: Routledge, 2010. – 198 p.
[9] Sunderland J. Gendered Discourses. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 248 p.

ijtimoiy tarmoqlardagi status va postlar tahlili asosida gender stereotiplarining lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari aniqlanib, ularni avtomatik aniqlashda qo‘llaniladigan leksik-semantik, kontekstual, baholovchi va nutq aktlariga oid lingvistik-pragmatik belgilar tizimlashtirilgan;

media diskursda gender stereotiplarining verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari aniqlanib, animatsion hamda karikatsion tasvirlar, emojilar hamda grafik unsurlarning stereotipik mazmunni shakllantirishdagi semantik-pragmatik vazifalari asoslangan va ularni avtomatik tahlilda qo‘shimcha pragmatik belgi sifatida hisobga olish mezonlari belgilangan;

g‘arb va o‘zbek media materiallarining qiyosiy tahlili asosida gender stereotiplarining milliy-madaniy, diniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq ifodalanish xususiyatlari aniqlanib, ularni stereotip turi, gender fokusi, nutq akti, ijtimoiy xoslanishi hamda ifoda shakliga ko‘ra NLP asosida tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan;

zamonaviy ijtimoiy qarashlar ta’sirida an’anaviy gender stereotiplarining mazmuniy va pragmatik o‘zgarish xususiyatlari aniqlanib, ularni stereotip turi, gender fokusi, nutq akti, baholash munosabati, ifoda shakli hamda kontekstual belgilar asosida avtomatik aniqlash va tasniflashning ko‘p mezonli lingvistik modeli shakllantirilgan hamda mazkur modelning amaliy qo‘llanilishi UzMediaDiskurs (https://uzmediadiskurs.uz) ilmiy-amaliy veb-platformasi orqali ta’minlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

media statuslar va postlarda gender stereotiplarni ifodalovchi lingvistik hamda pragmatik birliklar aniqlanib, ularning media diskursdagi kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi funksional imkoniyatlari asoslab berildi;

media diskursda gender stereotiplarni ifodalashda qo‘llaniladigan baholovchi stereotipik birliklar hamda vizual elementlarning o‘zaro uyg‘unligi mavjud stereotipik tasavvurlarni kuchaytiruvchi muhim lingvopragmatik vosita ekanligi dalillandi;

media diskurs materiallari asosida gender stereotiplarning til orqali ifodalanishidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, ularning media matnlarda sotsial hamda milliy-madaniy qadriyat va qarashlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi isbotlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-usuliy hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu dissertatsiyaning natijalari gender stereotiplar borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitadi hamda tilshunoslik, diskursologiya, lingvopragmatika, sotsiopragmatika, lingvokulturologiya yo‘nalishlarida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga nazariy asos vazifasini o‘taydi. Erishilgan natijalarning amaliy ahamiyati ulardan oliy o‘quv yurtlarida turli metodik tavsiyanoma, ko‘rsatmalar tuzish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Zero, tadqiqot amaliy tilshunoslik

doirasida bajarilgan bo‘lib, uning natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik hamda lingvopragmatika va sotsiopragmatika kabi sohalarga oid ma’ruzalar uchun zarur manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Media matnlarda o‘z ifodasini topgan gender stereotiplarning sotsiopragmatik tahlilidan olingan natijalar asosida:

ijtimoiy tarmoqlar statuslari va postlari tahlili asosida gender stereotiplarning lisoniy hamda sotsiopragmatik xususiyatlari ilk bor monografik planda yoritilib, ularning jamiyatdagi muayyan ijtimoiy munosabatlar, mental tasavvurlar va milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllanishiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 raqamli “Bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” nomli davlat innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 12-fevraldagi 04/1-830-son ma’lumotnomasi). Natijada media diskurs materiallari tahlili asosida olingan xulosalardan loyiha doirasida bolalar hamda o‘smirlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan matnlar, media postlar va interaktiv kontentni yaratishda sotsiopragmatik yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan, shuningdek, loyiha metodologiyasi gender lingvistikasi va media diskurs tahliliga doir zamonaviy nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

sotsial media materiallarida gender stereotiplar nafaqat verbal, balki noverbal vositalar (turli animatsion yoki karikatsion tasvirlar) orqali ham ifodalanishi hamda bunday multimodal vositalar stereotiplarning semantik va pragmatik ta’sirini kuchaytiruvchi muhim diskursiv omil sifatida xizmat qilishiga oid ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PZ-202004165 raqamli “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 12-fevraldagi 04/1-829-son ma’lumotnomasi). Natijada media diskurs materiallari tahlili asosida olingan xulosalardan loyiha doirasida boshlang‘ich ta’limga mo‘ljallangan elektron platformada og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlarni sotsiopragmatik jihatdan asoslash, genderga nisbatan neytral va inklyuziv nutqiy modellarni ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan;

g‘arb va o‘zbek media diskursida gender stereotiplarning til orqali ifodalanish xususiyatlari aniqlanib, g‘arb media matnlarida gender stereotiplarning, odatda, an’anaviy va zamonaviy qarashlar uyg‘unligini aks ettiruvchi lingvistik vositalar orqali ifodalanishi; o‘zbek media diskursida esa, diniy hamda milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq baholovchi va stereotipik til birliklari orqali namoyon bo‘lishiga doir xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 – “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 12-fevraldagi 04/1-827-son ma’lumotnomasi). Natijada media diskurs matnlari tahlili asosida olingan xulosalardan loyiha doirasida o‘zbek tilining ta’limiy korpusida

gender omilga doir lingvistik birliklarni ajratib ko‘rsatish, ularni funksional-pragmatik belgilash hamda o‘quv jarayonida foydalanish uchun moslashtirilgan korpus modullarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari bo‘yicha 12 ta konferensiya materiali, jumladan, 7 tasi xalqaro va 5 tasi respublika miqyosidagi anjumanlar materiallarida chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta nashr keltirilgan. Shundan 10 tasi ilmiy jurnal maqolasi, 12 tasi konferensiya materiali, 1 tasi monografiya, 1 tasi elektron qo‘llanma va 3 tasi o‘quv qo‘llanmasidir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashqari 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Media diskursda gender stereotiplarning lingvistik xoslanishi va ularni avtomatik aniqlashning nazariy asoslari”** deya nomlanib, unda diskurs, media diskurs, media matn hamda gender stereotiplar kabi til hodisalarining jahon tilshunosligida o‘rganilishi masalasi yoritilgan. Bobning “*Media diskursning zamonaviy tadqiqotlar kontekstidagi nazariy asoslari va uni avtomatik tahlil qilish masalalari*” deb nomlangan birinchi faslida media diskursning nazariy asoslari atroflicha muhokama qilingan.

Media diskurs – ko‘ptarmoqli soha. Media diskurs tushunchasi umumiy diskurs konsepsiyasidan kelib chiqqan bo‘lib, ommaviy kommunikatsiya sohasida nutqiy faoliyatning jarayonlari va mahsuli majmuyini, ularning o‘zaro ta’siridagi xilma-xillik va murakkablikni qamrab oladi. Media diskurs tadqiqotlarining zamonaviy bosqichida ushbu an’anaviy lingvistik yondashuvlar kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari bilan ham integratsiyalashmoqda.

1.1.jadval.

Gender stereotiplari va gender tarafkashligini NLP asosida tadqiq etishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Tadqiqot markazlari/tizimlar	Asosiy mazmuni
Korpus lingvistikasi va tanqidiy diskurs tahlili	Lancaster University, University of Sydney, Hong Kong Polytechnic University	OAVda ayol va erkak reprezentatsiyasi, genderga oid birliklar va stereotipik tasvirlarning korpus tahlili
So‘z vektorlari va til modellaridagi gender tarafkashligi	Stanford, Princeton, UCLA, Copenhagen, Mannheim va boshqalar	WEAT, WinoBias, BOLD kabi vositalar orqali gender assotsiatsiyalari va biasni aniqlash

Ijtimoiy tarmoqlarda seksizm va misoginiyani aniqlash	EXIST, AMI	Ijtimoiy tarmoq matnlarida seksistik va misoginik kontentni avtomatik aniqlash hamda tasniflash
OAV gender monitoringi	Gender Gap Tracker, GMMP	OAV materiallarida ayol va erkaklarning vakilligi, tilga olinishi va mavzular kesimidagi nisbatni avtomatik hisoblash

Hozirda media diskurs tushunchasini talqin etishda ikki asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvga ko‘ra, media diskurs faqat axborotga yo‘naltirilgan media makonga xos bo‘lgan maxsus nutqiy faoliyat turi sifatida qaraladi. Zero, shu o‘rinda media diskursni diskursning siyosiy, diniy, ilmiy kabi boshqa turlaridan farqlash lozim. Ular o‘rtasidagi farq diskurs parametrlarining modifikatsiyasi, ya’ni turli lingvistik amaliyotlardan foydalanishi va uni amalga oshirishdagi kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘liq. Ikkinchi yondashuv esa, media diskursni media makonda amalga oshiriladigan va ommaviy axborot vositalari tomonidan ishlab chiqariladigan har qanday diskurs turi sifatida talqin qiladi[10].

Media diskursning markaziy tushunchasi sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘zi emas, balki ularni tasvirlash va axborotni yetkazish usullarini anglash maqsadga muvofiq. Shu ma’noda, media diskurs vositachilik vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotning keyingi fasli *“Media matnning lingvistik tabiati, uning media diskurs bilan uzviyligi va NLP tahlilidagi xususiyatlari”* deb nomlanadi. Ommaviy kommunikatsiya matnlarini o‘rganishda “media matn” atamasi ommaviy-kommunikativ matn, ommaviy axborot vositalaridagi matn, jurnalistik matn, gazeta matni, televizion matn, reklama matni, internet matni va boshqalarni birlashtirish uchun ishlatiladi.

Zotan, media diskursni anglashda media matn muhim rol o‘ynaydi. Media matn media diskursga nisbatan tor tushuncha bo‘lib, aynan u zamonaviy jamiyatda media oqimining harakatini tartibga solish imkonini beradi. Media matn media diskursning diskret birligi sifatida ommaviy auditoriyaga mo‘ljallangan matn turi hisoblanadiki, unda verbal va mediaviy birliklar uyg‘unlashgan hamda aniq pragmatik yo‘nalishga ega holda yetkaziladi. Shu sababli, media matn nutqda media diskurs ko‘rinishida namoyon bo‘ladi va u aktual bo‘linish, presuppozitsiya, subyektiv modallik kabi kategoriyalar asosida tavsiflanadi. Media diskurs holatida media matn nutq subyektlari ongida kechuvchi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklari majmuyi orqali dialogiklik tabiatini namoyon etadi.

Media matnlar media diskursda axborot oqimlarini alohida fragmentlarga ajratuvchi diskret birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, media diskursni media matn tushunchasini tahlil qilmasdan turib o‘rganish mumkin emas. Media matn fenomeni jamiyatdagi kommunikatsiyaning yangi bosqichi sharoitida yuzaga kelib, matn tuzilmalarining semantik xususiyatlarini media makon tekisligiga ko‘chiradi. Demak, media matn deganda media janrlarining istalgan ko‘rinishida

[10] Кожемякин Е.А. Массовая коммуникация и медиадискурс: к методологии исследования // Научные ведомости Белгородского государственного университета, 2010. – № 2 (73). – С. 21.

(gazeta maqolasi, teleko‘rsatuv, videoklip, film, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va h.k.) ifodalangan axborot xabari tushuniladi. Media matnning diskret birlik sifatidagi xususiyati uni tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari yordamida avtomatik tahlil qilish imkonini ham yuzaga keltiradi.

Bobning uchinchi faslida “*Stereotip, gender stereotip hamda ularning ijtimoiy, lisoniy xususiyatlari va avtomatik tasniflash mezonlari*” tahlilga tortilgan.

Gender stereotip stereotipning bir turi hisoblanadiki, bunday stereotiplarning paydo bo‘lishi gender munosabatlar modeli qanday shakllantirilganligi bilan bog‘liq. Z.Shevchenko “Gender terminlari lug‘ati”da gender stereotiplarga quyidagicha ta’rif beradi: “Gender stereotiplar erkaklar va ayollarning xulq-atvori va xarakter-xususiyatlariga oid soddalashtirilgan, barqaror va emotsional bo‘yoqqa ega obrazlar bo‘lib, ular inson hayotining barcha sohalarida (o‘z-o‘zini anglashda, shaxslararo muloqotda va guruhlararo ta’sirda) namoyon bo‘ladi. Boshqa ijtimoiy stereotiplar kabi gender stereotiplar atrofdagilarni qabul qilish jarayonini belgilaydi va undagi ma’lumotlardan foydalangan holda ijtimoiy haqiqatni faol shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi[11]”.

Gender stereotiplarining til orqali mustahkamlanishi ularni yuzaga keltiruvchi nutq birliklarini alohida tasniflash zaruratini yuzaga keltiradi. Bunda gender stereotipining lingvistik ifodasi faqat ayol, erkak, qiz, yigit kabi bevosita gender leksemalari bilan cheklanmaydi.

N.Sidorenko hamda M.Skorykning qayd etishlaricha, gender stereotiplar “ma’lum madaniyatda shakllangan, soddalashtirilgan, birma’noli, sxematik tasavvurlar bo‘lib, ular erkaklar va ayollarning o‘rni, ijtimoiy xulq-atvori va boshqalarni belgilaydi. Muayyan guruhga mansub shaxslar esa, jamiyatda aynan shu tasavvurlar asosida baholanadi[12]”. Qisqa qilib aytganda, gender stereotiplar til va jamiyatning bir-biriga bog‘lanib ketgan ikki tomonini o‘zida aks ettiradi. Ular tilda qanday ifodalansa, jamiyatda ham shunday aks etadi.

Tadqiqotning NLP modelida gender stereotiplari besh asosiy mazmuniy sinfga tasniflanadi: xarakterga oid stereotiplar, kasb va mehnat mazmuniga oid stereotiplar, oilaviy va kasbiy rollarga oid stereotiplar, tashqi ko‘rinishga oid stereotiplar hamda ijtimoiy-moddiy maqomga oid stereotiplar. Bir matnda bir nechta stereotip xususiyati bir vaqtda uchrashi mumkinligi sababli mazkur tasnif ko‘p yorliqli xususiyatga ega. Ushbu tasnif nazariy gender tadqiqotlaridagi kategoriyalarni bevosita takrorlash emas, balki ularni avtomatik qayta ishlash uchun operatsionlashtirish natijasidir. Ya’ni har bir kategoriya matnda kuzatilishi mumkin bo‘lgan leksik, grammatik, semantik va pragmatik belgilar orqali aniqlanadi.

Deskriptiv va preskriptiv gender stereotiplar o‘rtasidagi mazkur farq avtomatik tasniflashda ham alohida kategoriya sifatida saqlanadi. Deskriptiv stereotip muayyan jins vakillarini umumlashtirgan holda “qanday ekanligi” haqida tavsif beradi. Preskriptiv stereotip esa jins vakili “qanday bo‘lishi kerakligi” haqidagi me’yoriy kutilmani ifodalaydi. NLP tahlilida preskriptivlikni aniqlashda kerak, shart, lozim singari deontik modal birliklar, buyruq mayli shakllari va normativ

[11] Шевченко З.В. Словник ґендерних термінів // http://a-z gender.net/ua/

[12] Сидоренко Н.М., Скорик М.М. та ін. Гендерні ресурси українських мас медіа: ціна і якість: практичний посібник для журналістів та працівників ЗМІ. – Київ: К.І.С, 2004. – С. 48.

qoliplar muhim indikator vazifasini bajaradi. Deskriptivlik esa ko‘proq generik subyekt bilan kelgan umumlashtiruvchi bayonlar, odatiylik mazmuni va xususiyat yuklovchi predikativ tuzilmalar orqali aniqlanadi. Gender stereotipini avtomatik aniqlashda faqat stereotipik birlikning mavjudligini qayd etish yetarli emas. Matnda stereotip keltirilishi, ammo muallif tomonidan rad etilishi yoki tanqid qilinishi ham mumkin. Shu bois, tasniflash modelida stereotipga munosabat alohida belgi sifatida ajratilib, “mustahkamlovchi” va “tanqidiy” turlarga bo‘linadi. Masalan, “Ayollar og‘ir ishni bajara olmaydi” tipidagi umumlashtiruvchi hukm stereotipni mustahkamlovchi mazmunga ega bo‘lsa, “Ayollar ham og‘ir ishlarni uddalaydi” yoki “Kosmetologiya faqat ayollar uchun emas” kabi konstruksiyalar mavjud stereotipni rad etuvchi mazmunni ifodalaydi. Bunday farqlashda inkor birliklari, ham yuklamasi, faqat ... emas konstruktsiyasi, “stereotip” so‘zining metalingvistik qo‘llanishi va boshqa rad etish markerlari hisobga olinadi. Keltirilgan misollarning aksariyatida individual shaxs emas, balki butun gender guruhiga xususiyat yuklash kuzatiladi. Avtomatik tahlilda bunday holat generik subyekt mezoni orqali aniqlanadi. Ayol, erkak, qiz bola, er kishi, kelin kabi birliklar muayyan shaxsni emas, jins yoki ijtimoiy rol vakillarini umumlashtirib ifodalaganda stereotipik hukmning tayanch elementi vazifasini bajaradi. Biroq gender leksemasining mavjudligi o‘z-o‘zidan stereotipni bildirmaydi. Masalan, “300 nafar ayol tadbirda qatnashdi” kabi aniq referensiyali gap faktik xabar bo‘lib, unda butun gender guruhiga xususiyat yuklanmaydi. Shuning uchun avtomatik tasniflashda generik referensiya bilan konkret referensiyani farqlash alohida mezon sifatida qo‘llanadi.

Gender stereotiplarini avtomatik tasniflashda matnning qaysi gender guruhiga yo‘naltirilganini belgilash ham zarur. Shu maqsadda gender fokusi “ayol”, “erkak” yoki “ikkalasi” qiymatlaridan biri bilan belgilanadi. Ayrim matnlarda bir vaqtning o‘zida ikki gender guruhi qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin: “Erkak pul topadi, ayol uy tutadi” kabi konstruksiyalarda gender fokusi har ikkala guruhni qamrab oladi. Bunday tasnif gender stereotiplarining qaysi ijtimoiy guruhga ko‘proq yo‘naltirilayotganini korpus va statistik tahlilda aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ijtimoiy media statuslaridagi gender stereotiplarning pragmatik va sotsiopragmatik tahlili hamda ularni avtomatik aniqlash”** deb nomlanadi. Mazkur bobning “*Status matnlaridagi gender stereotiplarning nutq aktlari tizimida voqelanishi va ularni avtomatik aniqlash mezonlari*” nomli birinchi faslida turli tillar tizimi asosida voqelangan statuslar matnlarida akslangan gender stereotiplarning har xil nutq aktlari orqali ifoda etilishi masalasi tahlilga tortildi. Status matnlaridagi gender stereotiplarini avtomatik aniqlashda nutq akti muhim pragmatik mezonlardan biri sifatida belgilanadi. J.Searle tasnifi asosida assertiv aktlar darak va tasdiq mazmuni, direktiv aktlar kerak, shart, lozim kabi deontik birliklar hamda buyruq-istak shakllari, ekspressiv aktlar baholovchi birliklar, undov va emojilar, komissiv aktlar va’da yoki majburiyat ifodalari, deklarativ aktlar esa e’lon va qaror shakllari asosida aniqlanadi. Unda statuslar pragmatikasi, ya’ni ularning muayyan maqsad asosida auditoriyaga yo‘naltirilganligi madaniy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va til xususiyatlariga bog‘liq ravishda shakllanishiga e’tibor qaratildi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning ingliz va rus segmentida, xususan, statuslarda ayollarning tushunib bo‘lmas xilqat

ekanligiga bot-bot murojaat qilinadi (2.1.1- va 2.1.2-rasmlarga qarang):





2.1.1-rasm va 2.1.2-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarning ingliz hamda rus segmentlarida ayollarning tushunib bo‘lmas xilqat ekanligi haqidagi statuslar.

Ushbu statuslar kinoyaviy xarakterga ega bo‘lib, ularda ayollarni tushunish oson ish emasligi haqidagi stereotiplar inobatga olinib, kitobning hattoki cho‘ntakka solib yurishga mo‘ljallangan maxsus versiyasi (“pocket edition”) ham ko‘psahifali bo‘lishi direktiv nutq akti orqali ta’kidlanmoqda. Bunda muallif mazkur ibora orqali hazil va kinoyani uyg‘unlashtirgan holda ayollar dunyosining murakkabligi hamda ularning hissiyotlari va fikrlash tarzini chuqurroq tushunish uchun oddiy tavsiyalar emas, balki butun boshli ensiklopedik bilimlar kerakligini nazarda tutadi. Statusning rus tilidagi ifodasi ham keng tarqalgan bo‘lib, nazarda tutilgan vaziyatning dolzarbligini va uning ko‘plab boshqa erkaklar uchun ham bosh “og‘rig‘i” ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarning nemis segmentida voqelangan ayrim statuslarda ham ayollarning tushunib bo‘lmas xilqat ekanligiga stereotipik ishoralar mavjudligini ko‘rish mumkin. Jumladan, *“Ayollarni aqldan ozdiradigan narsalar: 1. Erkakning borligi; 2. Erkakning yo‘qligi”* mazmunidagi quyidagi status ham shu turdagi stereotipik tasavvurlarni ifodalaydi (2.1.3-rasmga qarang):



2.1.3-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarning nemis segmentida ayollarning tushunib bo‘lmas xilqat ekanligiga ishora etuvchi status.

O‘zbek jamiyatida ham ayollar tushunib bo‘lmas tabiatga ega jins vakillari sifatida stereotiplashtiriladi. Buni quyidagi status tarkibida mavjud ayollar xarakteriga nisbat beruvchi *“Ayol...ob-havo kabi noma’lum”* assertiv kuchga ega jumlalari ham tasdiqlaydi. Kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki, gender stereotiplarning aksariyatini ayol va erkak jinsiga mansub kishilarning tashqi ko‘rinishlari haqidagi stereotiplar tashkil qiladi. Ularning pragmatik mohiyati bunday stereotiplar jamiyat a’zolarining tashqi qiyofaga nisbatan shakllangan ijtimoiy kutilmalarini aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Go‘zallik yoki xunuklik kabi nisbiy tushunchalar nafaqat ayollar, balki erkaklarning sifatlarini stereotiplashtirishda ham ulardan

foydalaniladi, deyish mumkin. Ammo bu, ko‘pincha, biroz boshqacharoq pragmatik maqsadga xizmat qiladi: *“Xunuk erkaklar bo‘lmaydi, pulsiz erkaklar bo‘ladi!”*

Darhaqiqat, turli millatlarda erkaklarda tashqi ko‘rinishdan ko‘ra ularning maqomi, kuchi, salohiyati yoki muvaffaqiyati ko‘proq qadrlanadi. Bu kabi yondashuvlar, odatda, erkaklarning tashqi ko‘rinishini keyingi o‘ringa qo‘yadi va jamiyatda, oilada ularning ijobiy baholanishi uchun tashqi ko‘rinish emas, balki moddiyat va ijtimoiy mavqe asosiy mezon sifatida tanlanishiga yorqin dalil bo‘la oladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, bu kabi stereotiplar erkaklarning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli va funksional vazifalarini ko‘proq e’tibor markaziga oladi. Natijada erkaklar “chiroyli” bo‘lishi shart emas, ammo “mas’uliyatli”, “barqaror”, “sabrli” va eng asosiysi “oila ta’minotchisi” bo‘lishi kerak degan implitsit xabar ilgari suriladi. Mana shunday mazmun tashuvchi stereotiplar sifatida ijtimoiy tarmoqlarda joylangan turli tillar, masalan, o‘zbek va rus tillaridagi statuslardan misol keltiramiz. E’tiborli jihati shundaki, bu kabi statuslar ba’zi hollarda quyidagi o‘rinlarda bo‘lgani kabi hatto bir-birini mazmunan takrorlab kelishi ham mumkin:





2.1.7-rasm va “2.1.8-rasm. O‘zbek va rus ijtimoiy tarmoqlarida erkak husni haqidagi bir-birini to‘ldiruvchi statuslar.

Shuningdek, statuslarda gender stereotiplar nafaqat so‘zlar, balki noverbal vositalar (tasvir, belgi, rang, simvol, imo-ishora va h.lar) orqali ham ifodalanadi. Aynan shu vizual komponentlar orqali turli jamiyatlarda ayol obrazi turlicha talqin qilinadi, jumladan, ingliz, nemis va rus media makonida ayollar ko‘proq faol, ijtimoiy jihatdan mustaqil hamda zamonaviy qiyofada aks ettirilsa, o‘zbek kontekstida ular ko‘proq an’anaviy qadriyatlar bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

Media statuslardagi gender stereotiplarni avtomatik aniqlashda nutq akti, gender leksemalari, baholovchi birliklar, umumlashtirish va implitsit ma’no birgalikda hisobga olinadi. UzMediaDiskurs platformasining NLP moduli matnni qayta ishlash natijasida uning janrini, gender fokusini, stereotip turini, ifoda shaklini, stereotipga munosabatni, pragmatik aktni hamda xulosaga asos bo‘lgan til birliklarini ko‘rsatadi. Shu jihatdan tahlil alohida statusning umumiy taassurotiga emas, muayyan lingvistik belgilarga tayanadi.

Tadqiqotimiz doirasida o‘zbek media diskursida gender stereotiplarini avtomatik aniqlash va tasniflashga mo‘ljallangan **UzMediaDiskurs** ilmiy-amaliy veb-platformasi ishlab chiqildi. Mazkur platforma tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, mediamatnlarda uchraydigan gender stereotiplarini lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik mezonlar asosida tahlil qilish

hamda tasniflash imkonini beradi. Platformadan hozirda https://uzmediadiskurs.uz havolasi orqali foydalanish mumkin. Foydalanuvchilarning zamonaviy elektron qurilmalar yordamida platformaga tezkor va qulay kirishini ta’minlash maqsadida mazkur havola uchun maxsus QR-kod shakllantirildi (qarang: 2-rasm).

2-rasm. UzMediaDiskurs ilmiy-amaliy veb-platformasiga o‘tish uchun QR-kod.

Platformaning “Tahlil tafsiloti” oynasidagi “O‘qigan ayol – oilaning so‘nmas chirog‘i” statusi assertiv nutq akti hamda oilaviy rol bilan bog‘liq gender stereotipi sifatida belgilangan. “Ayol” gender leksemasi va “oilaning” birligi eksplitsit belgilar bo‘lsa, “chirog‘i” so‘zi yashirin metaforik ifoda sifatida qayd etilgan. Natija kartasida stereotipning deskriptiv hamda mustahkamlovchi xarakteri ko‘rsatiladi. Mazkur namunada ijtimoiy xoslanish aniqlanmagan; demak, avtomatik klassifikatsiya imkoniyatini uning aniqlangan va aniqlanmagan ko‘rsatkichlarini ajratgan holda sharhlash talab etiladi.



2.1-rasm. UzMediaDiskurs platformasida media statusning pragmatik, eksplitsit va implitsit NLP tahlili.

Administrator uchun mo‘ljallangan NLP Motor bo‘limida esa qo‘lda kiritilgan matnning pragmatik akti, gender fokusi, ochiq hamda yashirin vositalari va stereotip turi alohida maydonlarda aks etadi. Yo‘riqnomadagi namuna uchun gender fokusi

“ayol” (97 %), pragmatik akt “ekspressiv + assertiv” tarzida berilgan. Bu natija oldingi namunadan mustaqil bo‘lib, ikkala skrinshotni bitta matnning tahlili sifatida talqin qilish mumkin emas.



2.2-rasm. NLP Motor modulida qo‘lda kiritilgan matnning sotsiopragmatik tasnifi.

Pragmatik jihatdan statuslar muayyan jamiyatning erkak hamda ayol a’zolariga nisbatan ijtimoiy kutilmalarni aks ettiradi va auditoriyaga ma’lum implitsit xabarni yetkazishga xizmat qiladi. Statuslar nafaqat ochiq ifodalangan fikrlarni, balki yashirin ma’nolarni ham auditoriyaga yetkazadiki, bunda muallif muayyan fikr yoki qarashga o‘z munosabatini bevosita aytmasdan, ijtimoiy stereotiplar, qadriyatlar va kutilmalarni bilvosita ifodalaydi. Natijada o‘quvchi yoki tomoshabin mazmunni faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki kontekst, madaniy bilim va umumiy ijtimoiy tajribaga tayangan holda anglaydi. NLP asosidagi tahlilda bunday pragmatik xususiyatlar nutq aktlari, umumlashtirish, presuppozitsiya, kinoya, metafora, zidlash, ritorik so‘roq va boshqa ochiq hamda yashirin vositalar orqali formal mezonlar asosida aniqlanadi. Turli millatlar ongida ayollar va erkaklar haqidagi mavjud stereotiplarda muayyan mushtaraklik kuzatiladi. Bunda, ko‘pincha, ayollar tashqi ko‘rinish jihatidan “chiroyli”, “nafis” va “ozoda”, erkaklar esa moddiy jihatdan barqaror, kuchli va mas’uliyatli bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlar assertiv hamda direktiv nutq aktlari vositasida ifodalanadi. Avtomatik tahlilda bunday nutq aktlarini farqlash uchun darak va tasdiq mazmuni, kerak, shart, lozim kabi deontik birliklar, buyruq-istak shakllari, baholovchi leksemalar va boshqa pragmatik markerlar muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo’ladi.

Mazkur bobning navbatdagi fasli “*Status matnlaridagi gender stereotiplarning ijtimoiy xoslanishi va NLP asosida tasniflanishi*” deb nomlanadi. Gender stereotiplarining ijtimoiy xoslanishi, ayniqsa, ayollar haqidagi stereotiplarda

yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu borada turli jamiyatlardagi tarixiy, madaniy va diniy omillar kishilar ongidagi ayollar obrazining shakllanishida muhim rol o‘ynaganligini e’tirof etish zarur. Biroq bu stereotiplarning mazmuni va ifoda shakli turli jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmasi hamda qadriyat tizimiga qarab farqlanadi. Gender stereotiplarning ijtimoiy xoslanishi diniy, milliy-madaniy, moddiy-iqtisodiy va zamonaviy/global mazmun guruhlari bo‘yicha o‘rganiladi. Ushbu guruhlar tadqiqotning lingvistik tasnif mezonlarini tashkil etadi. Platformaning lingvistik bazasida ijtimoiy qadriyatlarni aniqlashga mo‘ljallangan alohida belgilar guruhi mavjud. Biroq har bir matnda mazkur belgilardan biri albatta aniqlanadi, deb bo‘lmaydi. Natija kartasida “ijtimoiy xoslanish aniqlanmadi” degan qayd ham chiqishi mumkin; bunday holatlarda kontekstual ekspert tahlili talab qilinadi.

Ijtimoiy xoslanish	**Asosiy mazmun**
Diniy	diniy tushuncha, norma va qadriyatlar
Milliy-madaniy	urf-odat, mentalitet, an’anaviy rol va qadriyatlar
Moddiy-iqtisodiy	boylik, daromad, ta’minot, iqtisodiy mavqe
Zamonaviy/global	mustaqillik, tenglik, yangi gender rollari

Odatda, ijtimoiy tarmoqlarga joylanadigan ingliz tilidagi statuslarning aksariyati zamonaviy qarashlar fonida aynan ayollarni erkaklar kabi “kuchli”, “mustaqil” hamda “o‘ziga ishongan” jins vakillari sifatida stereotiplashtirganini ko‘ramiz:



2.2.3-rasm. Ingliz segmentida ayollarni kuchli bo‘lishga undovchi status.

Darhaqiqat, so‘nggi o‘n yillikda g‘arbda, nafaqat, Buyuk Britaniyada, balki Germaniya va Rossiyada ijtimoiy tenglik, feminizm va oila mas’uliyatini teng taqsimlash g‘oyalari tobora keng tarqalib, erkaklarning ham uy ishlari va farzand tarbiyasidagi ishtiroki tabiiy hol sifatida qarala boshlandi. Ayni shu omil ta’sirida gender rollar o‘rtasidagi an’anaviy chegaralar asta-sekin yo‘qolib, jamiyatda yangi ijtimoiy me’yorlar shakllanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, erkak va ayol obrazlariga doir yangi zamonaviy hamda tenglikka asoslangan o‘ziga xos stereotiplarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Dastlabki status matnida “ayolga xos bo‘lmagan” sifatlar – “kuch”, “jasorat”, “qat’iyat” verbal ravishda aynan ularga yuklanayotgani hamda “po‘lat iroda” (ruscha vulgarizm elementlari bilan) kabi sof erkaklik atributlarining ayol kishiga nisbatan qo‘llanilayotganini ularning ijtimoiy rollari erkaklarniki bilan almashganini ko‘rsatuvchi pragmatik vosita sifatida tahlil qilish mumkin.

Nemis tilidagi misolda esa, “haqiqiy ayol” erkakning puliga yoki sovg‘alariga muhtoj emasligi, aksincha, o‘z mashinasi va o‘z daromadiga ega bo‘lishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ayol erkakdan moddiy ta’minotdan ko‘ra ayoliga ajratilgan vaqt, samimiylik, hurmat va e’tibor kutishi aytiladi. Shu tariqa, mazkur

misollar g‘arb media olami diskursida gender stereotiplarning transformatsiyaga uchrayotganini, ya’ni an’anaviy erkak va ayol rollari qayta talqin qilinayotganini ko‘rsatadi.

UzMediaDiskurs yo‘riqnomasidagi “Qiz bola uyatchan va itoatkor bo‘lishi kerak, erkak esa oilani boqadi” namunasi orqali avtomatik tahlilning ketma-ketligini kuzatish mumkin. NLP konveyerining sakkizinchi bosqichida “qiz” va “erkak” gender birliklari, “uyatchan”, “itoatkor” baholovchi leksemalari, “oilani” rolga oid birlik va “kerak” majburiyat modalligi belgisi ajratilgan. Belgilar vektori stereotipni aniqlashda qaysi lisoniy ko‘rsatkichlar qatnashganini ko‘rsatadi.

Qayd etish joizki, o‘zbek jamiyatida bu borada ayollar haqidagi stereotiplar, g‘arb statuslaridan farqli ravishda, ko‘proq diniy va milliy-ma’naviy qadriyatlar ta’sirida shakllangan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zotan, o‘zbek segmentidagi ijtimoiy tarmoqlarda ayollar haqida tarqalayotgan stereotipik xarakterga ega statuslarning aksariyati ularni “itoatkor”, “uyatchan” hamda “surati va siyrati hayo bilan bezalgan” shaxs sifatida tasvirlaganiga guvoh bo‘lamiz.



2.3-rasm. Gender stereotipni avtomatik aniqlashda eksplitsit va implitsit belgilar vektori.

Mazkur misolning to‘qqizinchi va o‘ninchi bosqichlarida gender fokusi “ikkalasi”, stereotip turi “xarakter, oilaviy rol”, ifoda shakli “preskriptiv”, stereotipga munosabat “mustahkamlovchi”, asosiy nutq akti “direktiv” tarzida tasniflangan. Natija uchun 97 foizlik ishonchlilik ko‘rsatkichi qayd etilgan. “Kerak” birligining direktiv aktga asos bo‘lishi va jinslarga oid belgilarning bir gapda qarama-qarshi qo‘yilishi avtomatik tahlilning izohlanuvchanligini ko‘rsatadi. Bu foiz modelning har qanday matnda 97 foiz to‘g‘ri ishlashini bildirmaydi, balki aynan shu namunaga chiqarilgan ishonchlilik qiymatidir.



2.4-rasm. Gender stereotipning NLP asosidagi tasnifi va natija ishonchliligi.

Avtomatik tasniflashda stereotiplar an’anaviy va zamonaviy qarashlar sifatida ajratilishi mumkin. An’anaviy stereotiplarda jins vakillariga avloddan avlodga o‘tgan me’yoriy rol va xususiyatlar yuklansa, zamonaviy stereotiplarda gender tenglik, iqtisodiy mustaqillik, rollarning almashuvi va yangi ijtimoiy kutilmalar aks etadi. Shu sababli, NLP tahlilida stereotipning mazmuni bilan bir qatorda uning an’anaviy yoki zamonaviy ijtimoiy paradigma bilan bog‘liqligi ham belgilanadi.

Mazkur ijtimoiy xususiyatlarni avtomatik tasniflashda statusning stereotip turi, gender fokusi, ifoda shakli, stereotipga munosabati hamda ijtimoiy xoslanishi o‘zaro bog‘liq holda aniqlanadi. Shu asosda bir status, masalan, ayolga yo‘naltirilgan oilaviy rol stereotipi, preskriptiv shakl, mustahkamlovchi munosabat va diniy yoki milliy-madaniy xoslanish bilan tavsiflanishi mumkin. Bunday ko‘p mezonli tasnif gender stereotiplarning jamiyat va madaniyatga bog‘liq xususiyatlarini formal shaklda ifodalash imkonini beradi.

Turli madaniy kontekstlarda gender stereotiplarning mazmuniy yo‘nalishi sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz, nemis va rus media makoniga xos stereotiplar an’anaviy hamda zamonaviy qarashlarning uyg‘unligi asosida shakllanib, ayol obrazi “mehribon ona” bilan bir qatorda “mustaqil shaxs” sifatida ham talqin etiladi. O‘zbek jamiyatida esa gender stereotiplar ko‘proq diniy va milliy-madaniy qadriyatlar ta’sirida shakllanib, ayolning ijtimoiy roli “itoatkorlik”, “hayolilik”, “oilaparvarlik” va “solihalik” kabi axloqiy mezonlar orqali belgilanadi. Shu sababli, NLP asosidagi tasnifda gender stereotiplarning ijtimoiy xoslanishi diniy, milliy-madaniy, moddiy-iqtisodiy hamda zamonaviy/global qarashlar kesimida, shuningdek, an’anaviy yoki zamonaviy xarakterda namoyon bo‘lishi jihatidan farqlanishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Ijtimoiy media postlarida gender stereotiplar strukturasining shakllanish tendensiyalari va ularni nlp asosida avtomatik tahlil qilish”** deya nomlangan. Uning dastlabki faslida “*Ijtimoiy tarmoqlardagi postlarda gender stereotiplarning mavqeyi va funksional shakllanishi hamda ularni avtomatik aniqlash xususiyatlari*” masalasi tahlilga tortilgan. Ijtimoiy media

postlarini avtomatik tahlil qilishda ularning janriy va strukturaviy xususiyatlari ham hisobga olinadi. Statuslardan farqli ravishda, postlar odatda kengroq bayon, faktik ma’lumot, voqea joyi, sana, miqdor, xabar fe’llari hamda izohlovchi kontekst bilan tavsiflanadi. Shu bois NLP tizimida postni aniqlashda matn hajmi bilan bir qatorda xabar berdi, ma’lum qildi kabi xabar fe’llari, sana, raqamli faktlar, joy nomlari va voqea konteksti kabi belgilar ham inobatga olinadi. Media status va media postlarni NLP orqali tahlil qilishda janr bilan bog‘liq belgilar muhim mezonlardan hisoblanadi. Statuslar ko‘pincha qisqa, umumlashtiruvchi va baholovchi mazmunda namoyon bo‘lsa, postlarda voqea tavsifi, sana, shaxs va joy nomlari, raqamli faktlar hamda izohlovchi kontekst uchrashi mumkin. Platforma matnlarning janrini alohida qayd etadi va korpus statistikasi doirasida media statuslar hamda media postlarni qiyoslash imkonini beradi. UzMediaDiskursning statistika modulidagi janriy qiyoslash diagrammasi mazkur ikki janrni gender fokusi, stereotipga oidlik, yashirin ma’no, direktiv va ekspressiv nutq aktlari kabi parametrlar bo‘yicha taqqoslaydi. Diagrammada aks etgan nisbatlar joriy korpusga tegishli bo‘lib, manbalar, til yoki janr filtrlari o‘zgartirilganda qayta hisoblanishi mumkin. Shuning uchun ularni barcha ijtimoiy tarmoqlarga oid umumiy statistik qonuniyat emas, tahlil qilingan korpusning ko‘rsatkichlari sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.



3.1-rasm. NLP korpusida media status va media postlarning janriy ko‘rsatkichlari qiyosi.

Dissertatsiyada tahlilga tortilgan Ma’ruf Boymurodning Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi postida oziq-ovqat yetkazib berish xizmatida ishlayotgan hijobli yosh qizning faoliyati ijobiy baholanadi. Muallifning qiz o‘z kasbidan uyalmayotgani haqidagi mulohazasi an’anaviy kasbiy gender stereotiplariga tanqidiy munosabatni ifodalaydi. Ushbu misol avtomatik tahlilda genderga oid leksemalarning mavjudligini aniqlash bilan cheklanmasdan, muallifning baholovchi pozitsiyasi, stereotipni mustahkamlash yoki rad etish yo‘nalishini ham farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Postlardagi gender stereotiplarini avtomatik tasniflashda stereotipga munosabatni aniqlash alohida ahamiyatga ega. Chunki postda stereotip tilga olinishi uning, albatta, qo‘llab-quvvatlanayotganini anglatmaydi. Ayrim postlar mavjud gender stereotipini mustahkamlasa, boshqalari uni tanqid qiladi yoki rad etadi. Shu sababli, NLP tasnifida stereotipga munosabat “mustahkamlovchi” va “tanqidiy” kategoriyalar orqali belgilanadi. Bunda inkor birliklari, qarama-qarshi misollar, ham, faqat ... emas kabi konstruksiyalar va muallifning baholovchi pozitsiyasi muhim ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, ijtimoiy media postlaridagi gender stereotiplarini avtomatik aniqlashda postning janriy xususiyati, gender fokusi, stereotip turi, ifoda shakli, stereotipga munosabat hamda ochiq va yashirin lingvistik vositalar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bunday ko‘p mezonli tasnif postlarda gender stereotiplarning nafaqat mavjudligini, balki ularning qanday ijtimoiy rol va funksional mazmunda shakllanayotganini ham formal mezonlar asosida aniqlash imkonini beradi.

Bobning keyingi fasli “*Ijtimoiy media postlarida zamonaviy tamoyillar, ularning gender stereotiplarga ta’siri va NLP asosidagi statistik tahlili*” tarzida nomlanib, unda tahlilga tortilgan materiallar asosida zamonaviy qarashlarning mavjud gender stereotiplarga qanday tas’ir ko‘rsat(ayot)gani tadqiq etiladi.

Zamonaviy tamoyillarning media matnlarda ifodalanishini avtomatik tahlil qilishda stereotipning mavjudligi bilan bir qatorda unga bildirilgan munosabat va qarash turi ham farqlanadi. Bunda stereotipni mustahkamlovchi yoki tanqid qiluvchi birliklar, zarurat va me’yor bildiruvchi ifodalar hamda an’anaviy va yangilanayotgan gender rollariga doir leksemalar hisobga olinadi. Bunday belgilash tahlil qilingan matnlarning diskursiv yo‘nalishini qiyoslash imkonini beradi, biroq faqat bir davr korpusi asosida jamiyatda stereotiplar vaqt o‘tishi bilan qay darajada o‘zgarganini isbotlab bo‘lmaydi.

Platforma statistikasi gender stereotip turlarini ayollar, erkaklar va ikkala jins haqidagi matnlar kesimida ko‘rsatadi. Bu taqsimot turlarning korpusdagi nisbatini tushuntirish uchun foydali. Agar aynan an’anaviy va zamonaviy qarashlarning munosabati yoki vaqt bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilmoqchi bo‘lsa, platformaning Statistika bo‘limidagi 5-diagramma (“Stereotipga munosabat va qarash turi”) va 15-diagramma (“Korpus dinamikasi”) uchun yangi, sana va filtrlar ko‘rinadigan haqiqiy skrinshot olish zarur. Yo‘riqnomada ushbu diagrammalar ro‘yxati mavjud, lekin ularning tayyor, yiriklashtirilgan skrinshotlari berilmagan.



3.2-rasm. Korpusdagi stereotip turlarining gender fokusi bo‘yicha taqsimoti.

NLP asosidagi statistik tahlilda postlar bir nechta asosiy parametr bo‘yicha guruhlanadi: stereotip turi, gender fokusi, ifoda shakli, stereotipga munosabat, qarash turi, nutq akti, yashirin ma’no mavjudligi, til va platforma. Mazkur ko‘rsatkichlarning chastota va ulushlarini aniqlash gender stereotiplarning qaysi shakllari ko‘proq uchrashini, ular ko‘proq ayollar yoki erkaklarga qaratilganini, shuningdek, an’anaviy stereotiplarni mustahkamlovchi yoki tanqid qiluvchi postlar nisbatini qiyoslash imkonini beradi.

Shu tariqa, NLP asosidagi statistik tahlil alohida postlarning sifat tahlilini umumiy korpus darajasidagi miqdoriy natijalar bilan to‘ldiradi. Postlarni stereotip turi, gender fokusi, ifoda shakli, munosabat, qarash turi, nutq akti, til va platforma kesimida guruhlash orqali gender stereotiplarning zamonaviy media makonidagi o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash mumkin. Bunday statistik yondashuv an’anaviy qarashlarning saqlanishi, zamonaviy qarashlarning kuchayishi hamda stereotiplarni tanqid qiluvchi diskursning ulushini qiyosiy tarzda baholash imkonini beradi.

XULOSA

1. Media diskurs ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda yaratiladigan, tarqatiladigan hamda qabul qilinadigan matn va nutqiy birliklarni qamrab oluvchi murakkab kommunikativ hodisa ekanligi aniqlandi. U axborot yetkazish bilan cheklanmay, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, mental tasavvurlar va muayyan ijtimoiy qarashlarning shakllanishi hamda o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan media diskurs gender stereotiplarning shakllanishi, mustahkamlanishi, qayta talqin qilinishi va transformatsiyasini o‘rganish uchun muhim lingvistik hamda sotsiopragmatik makon hisoblanadi.

2. Media matnning keng auditoriyaga yo‘naltirilganligi, muallifning kommunikativ niyati, pragmatik maqsadi, janriy xususiyati va ijtimoiy-madaniy konteksti uning gender stereotiplarni ifodalash imkoniyatlarini belgilashi asoslandi. Media status va postlarning strukturaviy hamda kommunikativ jihatdan farqlanishi ularni NLP asosida avtomatik tahlil qilishda ham hisobga olinishi zarur bo‘lib, bunda til, janr, leksik-semantik belgilar, pragmatik vositalar va kontekst o‘zaro bog‘liq mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Ijtimoiy media statuslari va postlaridagi gender stereotiplarning lisoniy, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari ularning til birliklari bilangina emas, balki nutq aktlari, modallik, baholash, umumlashtirish, presuppozitsiya, kinoya, metafora, zidlash, ritorik so‘roq va boshqa ochiq hamda yashirin vositalar orqali ham voqelanishida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Mazkur belgilar gender stereotiplarini avtomatik aniqlash uchun formal lingvistik-pragmatik mezon sifatida belgilanishi mumkin.

4. Gender stereotiplarning media matnlarida voqelanishi nutq aktlari tizimi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatildi. Tahlil qilingan materiallarda assertiv, direktiv va ekspressiv nutq aktlari genderga oid ijtimoiy kutilmalar, me’yoriy talablar va baholovchi munosabatlarni ifodalashda faol qo‘llanadi. Shu asosda nutq aktining turi, gender fokusi va stereotipning ochiq yoki yashirin shaklda ifodalanishi avtomatik pragmatik tasnifning muhim ko‘rsatkichlari sifatida ajratildi.

5. Gender stereotiplarning mazmuniy tuzilishi erkak va ayollarga yuklatiladigan turli ijtimoiy xususiyatlar bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayollar bilan bog‘liq stereotiplarda tashqi ko‘rinish, noziklik, ozodalik, oilaviy rol kabi belgilar, erkaklar bilan bog‘liq stereotiplarda esa kuch, mas’uliyat, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy maqom kabi xususiyatlar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shu asosda gender stereotiplarni xarakter, kasb va mehnat mazmuni, oilaviy va kasbiy rol, tashqi ko‘rinish hamda ijtimoiy-moddiy maqom kabi mazmuniy kategoriyalar bo‘yicha avtomatik tasniflash mezonlari tizimlashtirildi.

6. Gender stereotiplarning shakllanishi va ifodalanishida ijtimoiy-madaniy omillarning sezilarli o‘rni mavjudligi aniqlandi. Ingliz, nemis va rus tilidagi media materiallarda an’anaviy hamda zamonaviy qarashlarning parallel yoki qarama-qarshi tarzda namoyon bo‘lishi kuzatilsa, o‘zbek media diskursida diniy va milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq stereotipik birliklarning salmog‘i yuqoriligi ko‘rindi. Shu asosda stereotiplarning ijtimoiy xoslanishini diniy qadriyatlar, milliy-madaniy qadriyatlar, moddiy-iqtisodiy omillar hamda zamonaviy/global qarashlar kategoriyalari orqali tasniflash imkoniyati belgilandi.

7. Gender stereotiplarning media diskursda nafaqat verbal, balki noverbal va multimodal vositalar orqali ham shakllanishi aniqlandi. Animatsion va karikatsion tasvirlar, emoji, ramzlar, vizual qarama-qarshiliklar hamda boshqa grafik unsurlar verbal mazmun bilan birgalikda stereotipning semantik va pragmatik ta’sirini kuchaytiradi. Shu sababli, gender stereotiplarni avtomatik tahlil qilishda verbal birliklar asosiy manba bo‘lsa-da, multimodal belgilarni qo‘shimcha pragmatik ko‘rsatkich sifatida hisobga olish zarurligi asoslandi.

8. Zamonaviy ijtimoiy tendensiyalar, globallashuv, gender tenglik va ijtimoiy rollarning qayta taqsimlanishi an’anaviy gender stereotiplarning mazmuni hamda kommunikativ funksiyasini o‘zgartirayotgani aniqlandi. Tahlil qilingan media materiallarda ayrim stereotiplar an’anaviy shaklda mustahkamlanayotgan bo‘lsa, boshqalari tanqid qilinmoqda, inkor etilmoqda yoki zamonaviy mazmunda qayta talqin qilinmoqda. Shu asosda media matnlarni an’anaviy/zamonaviy qarash, mustahkamlovchi/tanqidiy munosabat va preskriptiv/deskriptiv ifoda shakli bo‘yicha farqlash NLP asosidagi tasnifning muhim mezonlari sifatida belgilandi.

9. Gender stereotiplarini avtomatik aniqlash va tasniflashda birgina leksik belgiga tayanish yetarli emasligi, ko‘p mezonli NLP yondashuvi zarurligi asoslandi. Shu maqsadda stereotip turi, gender fokusi, nutq akti, ifoda shakli, stereotipga munosabat, ijtimoiy xoslanish, ochiq va yashirin ifoda vositalari, qarash turi, til va janr kabi ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beruvchi tasnif mezonlari shakllantirildi. Mazkur parametrlarni statistik jihatdan guruhlash esa turli tillar va media platformalar kesimida gender stereotiplarning tarqalishi, saqlanishi hamda transformatsiya tendensiyalarini miqdoriy va qiyosiy jihatdan aniqlash imkonini beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.01.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

ЗАРИПБОЕВА НАФОСАТ МАРАТОВНА

ВЫЯВЛЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В УЗБЕКСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ NLP

10.00.11 – Прикладная и компьютерная лингвистика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № ……..

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Сайфуллаева Раъно Рауфовна** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Хайруллаев Хуршид Зайниевич** доктор филологических наук, профессор
	Атабоев Нозимжон Бобожонович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Кокандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.01.12 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. (Адрес: ……., город Ташкент, улица ……., дом ……., Тел.: (+998….) ……; Тел: (+998….) ……, факс: (+998….) …… Web-sayt: ....., e-mail: ……).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрирована за №____). (Адрес: ……., город Ташкент, улица ……., дом ……., Тел.: (+998….) ……).

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2026 г.)

Б.Б. Абдушукуров
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.филол.н., профессор

М.Б. Хужамкулова
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней д.филол.н., доцент

М.М. Курбонова
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.филол.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании медиадискурс рассматривается как сложное коммуникативное явление, в рамках которого формирование, выражение и распространение гендерных стереотипов исследуются во взаимосвязи языка, культуры и социальных отношений. Изучение гендерных стереотипов в медиадискурсе первоначально осуществлялось на основе социолингвистического и прагматического подходов, в рамках которых анализировались социальные роли мужчин и женщин, языковые средства выражения представлений о них, а также особенности их проявления в процессе коммуникации. В настоящее время развитие информационных технологий, широкое распространение социальных сетей и различных медиаплатформ способствуют расширению коммуникативных возможностей медиадискурса, в связи с чем лингвистическое исследование процессов формирования, закрепления и изменения гендерных стереотипов приобретает особую актуальность.

В мировом языкознании проводятся научные исследования, направленные на изучение языкового выражения гендерных стереотипов в медиадискурсе, в частности в медиастатусах и постах, а также механизмов их формирования и распространения. В данных исследованиях приоритетное значение приобретают когнитивно-дискурсивный, социопрагматический и лингвокультурологический подходы, при этом особое внимание уделяется выявлению семантико-прагматических особенностей гендерных стереотипов, их коммуникативных функций и взаимосвязи с социокультурными факторами. Одним из актуальных направлений научных исследований является систематизация языковых средств выражения гендерных стереотипов в медиастатусах и постах, определение их контекстуального значения и прагматического воздействия, а также изучение механизмов формирования и воспроизводства социальных представлений о гендере в медиадискурсе.

В последние годы в нашей стране активно развиваются научные исследования, направленные на изучение лингвистических особенностей медиадискурса, исследование прагматических, лингвокультурологических и коммуникативных аспектов медиатекстов, а также выявление закономерностей употребления языковых единиц в процессе цифровой коммуникации. Дальнейшее укрепление роли и положения женщин в государственном и общественном управлении является одним из наиболее приоритетных направлений проводимых реформ[13]. Данное положение обосновывает важность изучения языкового выражения национально-культурных ценностей, социальных представлений и гендерных установок в медиатекстах. В частности, к числу актуальных научных задач относятся выявление семантико-прагматических особенностей языковых единиц,

[13] Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. Источник: https://president.uz/oz/lists/view/4057

выражающих гендерные стереотипы в медиастатусах и постах, определение их коммуникативных функций и раскрытие взаимосвязи с социокультурными факторами. В связи с этим актуальность настоящего исследования определяется необходимостью системного изучения социопрагматических особенностей гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе, выявления языковых средств их выражения и механизмов контекстуального проявления.

Данное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и науки в новый период развития Узбекистана», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», в Послании главы государства Олий Мажлису, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировом языкознании широкое изучение проблем медиатекста и медиадискурса связано с научными исследованиями таких учёных, как Т. ван Дейк, Н. Фэркло, Р. Фаулер и М. Монтгомери[14]. Лингвистические особенности гендера и гендерных стереотипов исследовались с позиций различных лингвистических подходов такими зарубежными учёными, как Р. Лакофф, Г. Хофстеде, А. Х. Игли, Д. Таннен, В. Вуд, Дж. Холмс, Е. Картушина, В. Никольская, Л. А. Рудман, П. Эккерт, С. Макконнелл-Гинет и Н. Эллемерс[15].

---

[14] Van Dijk T. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – 200 p.; Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.; Fairclough N. Media Discourse. – London: Arnold, 1995. – 214 p.; Montgomery M. The Discourse of Broadcast News: A Linguistic Approach. – New York: Routledge, 2007. – 264 p.

[15] Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 85 p.; Eagly A.H. Sex Differences in Social Behavior: A Social-Role Interpretation. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1987. – 190 p.; Tannen D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 330 p.; Hofstede G. Masculinity and Femininity: The Taboo Dimension of National Cultures. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 1998. – 238 p.; Eagly A.H., Wood W. The Origins of Sex Differences in Human Behavior: Evolved Dispositions Versus Social Roles. // American Psychologist, 1999. –Vol. 54. –№ 6. – P.408-423.; Holmes J., Meyerhoff M. (Eds.). The Handbook of Language and Gender. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2003. – 776 p.; Картушина Е.А. Гендерные аспекты фразеологии в массовой коммуникации: Дисс. … канд. филол. наук. – Ижевск, 2003. – 175 с.; Никольская В.А. Гендерные асимметрии и стереотипы в английской фразеологии: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Н. Новгород, 2005. – 23 с.; Rudman L.A., Glick P. The

В русском языкознании среди исследователей, внёсших значительный вклад в изучение проблем текста и дискурса, развитие дискурсивного анализа, а также становление и развитие теории медиатекста и медиадискурса, особо следует выделить С.И. Бернштейна, Г.Я. Солганика, С.И. Трескову, Б.В. Кривенко, И.П. Лисакову[16], Е.Ю. Богданову, Ю.А. Филиппову, Э.А. Казимову, И.В. Андрееву, Е.В. Соловянову, В.Е. Чернявскую[17].

В трудах узбекских языковедов Н. Махмудова, Ш. Сафарова, С. Муминова, М. Хакимова, М. Газиевой, Ш. Искандаровой, Д. Абдуазизовой, Л. Рауповой[18], а также Ш. Бобожоновой, Ш. Гулямовой, Г. Ниязовой, С. Нурмоновой, Г. Одиловой, А. Пардаева, К. Расулова, Н. Абдурахмоновой, З. Тахирова, Г. Эргашевой, И. Тухтасинова, З. Джураевой, Д. Рустамова, А. Рузиева, Н. Хурсанова, М. Саидхонова, А. Абдусаидова, Г. Бакиевой, Д. Тешабаевой, С. Шомаксудовой, М. Исраил[19] и других учёных представлены ценные материалы, связанные с темой настоящего исследования.

Social Psychology of Gender: How Power and Intimacy Shape Gender Relations. – New York: Guilford Press, 2008. – 386 p.; Ellemers N. Gender Stereotypes. // Annual Review of Psychology, 2018. –Vol. 69. – P.275-298.

[16] Бернштейн С.И. Язык радио. – Москва: Наука, 1977. – 96 с.; Солганик Г.Я. Лексика газеты: функциональный аспект. – Москва: Изд-во МГУ, 1981. – 160 с.; Трескова С.И. Социолингвистические проблемы массовой коммуникации. – Москва: Наука, 1989. – 160 с.; Кривенко Б.В. Язык массовой коммуникации: лексико-семиотический аспект. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1993. – 136 с.; Лисакова И.П. Язык газеты и типология прессы: Социолингвистическое исследование. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. – 320 с.

[17] Богданова Е.Ю. Лексические приметы дискурса власти и дискурса личности в произведениях С. Довлатова: Автореф. дисс. кандидат. фил. наук. – Москва, 2000. – 18 с.; Филиппова Ю.А. «Дискурсы сознания» и «дискурсы о сознании» в «новой волне» литературы постмодернизма: Дисс. кандидат. фил. наук. – Москва, 2016. – 142 с.; Казимова Э.А. Персональность в дискурсе побуждения: Автореф. дисс. кандидат. фил. наук. – Москва, 2004. – 27 с.; Андреева И. В. Опровержение в институциональном дискурсе: Дисс. кандидат. фил. наук. – Москва, 2008. – 200 с.; Соловянова Е.В. Агональность в академическом дискурсе: Автореф. дисс. кандидат. фил. наук. – Воронеж, 2020. – 24 с.; Чернявская В.Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс: Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: С. Петерб. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С. 14.

[18] Маҳмудов Н. Presuppozitsiya va gap. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti, 1986. – 29 b.; Mahmudov N. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 175.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, 2008. – 318 b.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 29 b.; Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. Darslik. – Farg‘ona: Klassik, 2020. – 420 b.; Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 28 б.; Абдуазизова Д.А. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английского, русского, узбекского языков): Дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 1997. – С. 19.; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 49 б.

[19] Бобожонова Ш. Ўзбек ва инглиз тилларидаги таълимий дискурснинг когнитив-прагматик тадқиқи: Филол. фанл. д-ри. дисс. – Андижон, 2022. – В.121.; Гулямова Ш. Б. Монологик дискурсдаги қўшма гапларнинг социопрагматик талқини. –Т., 2022.–141б.; Ниязова Г.Ғ. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол.фан..бўй. фалсафа докт. (PhD) дисс. – Т., 2022. – 140 b.; Нурмонова С.Д. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. – Андижон, 2022. – Б. 66.; Одилова Г.К. Глюттоник дискурс асослари. – Т.: Mumtoz so‘z, 2020. – 296 б.; Pardayev A.B. Diskurs haqida ayrim mulohazalar // International journal of progressive science and technologies, 2021. – B.181-189.; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2008.– 22 б.; Abdurakhmonova N., Aripov M. Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective// «TurkLang 2018».– T.: Navoiy universiteti, 2018. – C.390.; Taxirov Z. Badiiy matn tahriri: leksik-semantik tahlil: Filol. fan. d-ri. diss.avtoref.– T., 2024.–64 b.; Ergasheva G.I. Applied linguistics: Terminology and Translation through gender discourse lens. – T.: Navruz, 2018. – 154 p.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Т.: УзГУМЯ, 2011. – 28 с.; Djurayeva Z.R. Turli tizimli tillar paremiologik fondida gender konseptosferasini ifodalash (rus va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 72 b.; Rustamov D. Linguacultural aspects of communication // International journal of progressive

Язык средств массовой информации, выступающий объектом нашего исследования, в определённой степени изучался в мировом языкознании в аспекте гендерных стереотипов. Так, М. Талбот[20] исследовала язык СМИ с социопрагматических позиций, проанализировав его роль в закреплении гендерных ролей. По мнению М. Талбот, реклама и средства массовой информации, представляя женщин и мужчин в стереотипных образах, формируют социальные ожидания потребителей. Дж. Сандерленд[21], в свою очередь, проанализировала влияние гендерных стереотипов на подрастающее поколение на материале детской литературы и медиаконтента. Значимость её исследования заключается в раскрытии роли стереотипов в процессе социализации посредством языка.

Связь темы исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертация выполнена в соответствии с планом научно-исследовательской работы кафедры компьютерной лингвистики и прикладного языкознания Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека в рамках научного направления «Корпусная лингвистика. Компьютерная лексикография. Онтология и семантические технологии» (2024-2028 гг.).

Цель исследования заключается в выявлении языковых, прагматических и социопрагматических особенностей гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе, разработке лингвопрагматических критериев их автоматического выявления и классификации, а также обосновании возможностей их практического применения на основе технологий обработки естественного языка (NLP).

Задачи исследования:

теоретически исследовать языковые, прагматические и социопрагматические особенности гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе, а также проанализировать подходы NLP, применяемые для их автоматического выявления;

выявить лексико-семантические, прагматические и контекстуальные признаки выражения гендерных стереотипов в статусах и постах социальных сетей, определить лингвистические критерии их автоматического анализа;

---

science and technologies. – Москва, 2021.; Ruziyev A.Y. Xususiy diskurslarda gender stereotiplarni farqlovchi nutq birliklari (“Mendirman Jaloliddin” va “Ertug‘rul” kinossenariylari misolida): Filol. fan. bo‘y. falsafa dokt.(PhD)...diss.avtoref.–Andijon,2023.–57b.; Хурсанов Н.И. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати (ўзбек ва инглиз тилларидаги асарлар мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. – Андижон, 2022. – Б. 39.; Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. ном. дисс. –Тошкент, 1993. – Б. 161.; Abdusaidov A. Gazeta sarlavhasi (Gazeta sarlavhalarining struktur-grammatik va leksik-stilistik xususiyatlari). – Samarqand: SamDU, 1995. – 120 b.; Bakiyeva G., Teshabayeva D. Mediamakonda matn. – T.: Turon-Iqbol, 2019. – 208 b.; Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O‘zbekiston Respublikasi OAV misolida): Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – T., 2012. – 48 b.; Shomaqsudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 182 b.

[20] Talbot M. Language and Gender in the Media. – London: Routledge, 2010. – 198 p.

[21] Sunderland J. Gendered Discourses. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 248 p.

выявить особенности выражения гендерных стереотипов посредством речевых актов, оценочных единиц, национально-культурных ценностей, вербальных и невербальных средств, а также разработать критерии их классификации;

определить особенности выражения традиционных и современных гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе и обосновать возможности практического применения модели их автоматического выявления и классификации с использованием технологий NLP.

Объектом исследования являются медиатексты в виде статусов и постов, опубликованных в социальных сетях.

Предмет исследования составляют языковые, прагматические и социопрагматические особенности гендерных стереотипов в узбекском медиадискурсе, языковые единицы, служащие средствами их выражения, а также лингвопрагматические критерии автоматического выявления и классификации гендерных стереотипов с использованием технологий NLP.

Методы исследования. В процессе исследования использованы методы противопоставления, классификации, дискурсивного, контекстуального и структурного анализа, а также сравнительный и сопоставительный методы, также использовались методы автоматического разрешения кореференции, основанные на правилах, машинном обучении и нейронных сетях, а также гибридные методы.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

на основе анализа статусов и постов в социальных сетях выявлены языковые, прагматические и социопрагматические особенности гендерных стереотипов, а также систематизированы лингвопрагматические признаки их автоматического выявления, включая лексико-семантические, контекстуальные, оценочные признаки и признаки, связанные с речевыми актами;

выявлены особенности выражения гендерных стереотипов в медиадискурсе посредством вербальных и невербальных средств, обоснованы семантико-прагматические функции анимационных и карикатурных изображений, эмодзи и графических элементов в формировании стереотипного содержания, а также определены критерии их учёта в качестве дополнительных прагматических признаков при автоматическом анализе;

на основе сравнительного анализа западных и узбекских медиаматериалов выявлены особенности выражения гендерных стереотипов, обусловленные национально-культурными, религиозными и социальными факторами, а также разработаны критерии их классификации с использованием технологий NLP по типу стереотипа, гендерной направленности, речевому акту, социальной обусловленности и форме выражения;

выявлены особенности семантической и прагматической трансформации традиционных гендерных стереотипов под влиянием современных общественных представлений, разработана многокритериальная лингвистическая модель их автоматического выявления и классификации по

